

DISKURS VA DIPLOMATIK DISKURS XUSUSIDA

ON DISCOURSE AND DIPLOMATIC DISCOURSE

О ДИСКУРСЕ И ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-38-42>

Imamova Xolida Kamalovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Yevropa va turkiy tillar kafedrası dotsenti, PhD
imamova.h68@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola ‘diskurs’ va ‘diplomatik diskurs’ mavzusiga bag’ishlangan. ‘Diplomatik diskurs’ning jarayon sifatida, ‘diplomatik til’ ning vosita sifatidagi bog’liqligi, o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, turk tili, diskurs, diplomatik diskurs, modal fe‘l.

Abstract: This article is devoted to the topics of “discourse” and “diplomatic discourse.” It discusses the relationship between “diplomatic discourse” as a process and “diplomatic language” as a means of communication, as well as their distinctive features.

Keywords: Uzbek language, Turkish language, discourse, diplomatic discourse, modal verb.

Kirish. Til – ijtimoiy hodisa, o‘ziga xos semiologik sistema bo‘lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashuv quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta‘minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy an‘analarni yetkazuvchi vosita sanaladi [Iriskulov: 1992, 7].

Ma‘lumki O‘zbek tili, genetik nuqtai nazardan turkiy tillar oilasining qarluq-qipchoq guruhiga, turk tili esa o‘g‘iz-saljuq guruhiga o‘ddir. Tuzilishiga ko‘ra esa har ikkisi ham affiksali ya‘ni flektiv tillarga mansub bo‘lib, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyatining rasmiy tili hisoblanadi.

Asosiy qism. Diskurs atamasi tilshunoslikda 1950 yillarda birinchi marotaba amerikalik olim Zellig Harrisning ‘Discourse analysis (Diskurs tahlili)’ nomli maqolasida ishlatilgan [Harris: 1952, 1–30]. Zellig Harrisga ko‘ra, diskurs (nutq) nutqni tashkil etuvchi gaplarning ketma-ket kelishidan iboratdir. Uning fikricha, nutq gapdan yuqori turuvchi birlik hisoblanadi [Günay: 2018, 25–33].

Tilshunoslikda pragmatika va kognitiv tilshunoslik kabi yo‘nalishlarning asosiy muammolaridan biri ham aynan *diskurs* masalasiga borib taqaladi. Rus olimi E.S.Kubryakov *diskurs* haqida yozib bugungacha tilshunoslikda bir ta‘rif yo‘qligini ta‘kidlaydi [Кубрякова: 2000, 7–25.].

Diskurs – ilmiy adabiyotlarda juda keng semantik ma‘noga ega bo‘lib, bu semantik ma‘no o‘z ichiga ‘izchil matn’, ‘dialog’, ‘og‘zaki muloqot’, ‘fikir

almashinuv’, ‘suhbat shakllari’ni qamran oladi. Diskurs yondashuvlarida funksional va formal yo‘nalishlar ajralib turadi [Safarov: 2006, 41-46] – deya ta’kidlaydi Shahriyor Safarov.

Turk tilida *diskurs* termini uchun ‘*söylem*’ atamasi qo‘llanilib bu turk tilshunosligiga 1980- yillarda Berka Varder va uning hamkasblari tomonidan kiritilgani manbalarda qayd etiladi.

Tilshunoslikda diskurs (*söylem*) bitta gapdan uzun bo‘lgan til birligini ifodalaydi. ‘*Söylem*’ so‘zi lotin tilidagi ‘*uzoq*’ ma’nosini bildiruvchi *dis-* old qo‘shimchasi hamda ‘*yugurmoq*’ ma’nosini anglatuvchi ‘*currere*’ ildizidan kelib chiqqan. Shu sababli, ‘*söylem*’ ‘*oqib borish*’ yoki ‘*davom etish*’ ma’nosini anglatadi va nutqning oqim shaklini ifodalaydi [Drid: 2010, 20].

Diplomatik atamasi - O‘zbek tilining izohli lug‘atida: 1. Davlatning chet mamlakatlari bilan bo‘ladigan rasmiy munosabati va diplomatiyaga oid; 2. Diplomatlariga yani elchilarga oid – deya qayd etiladi [O‘TIL-D: 2006, 624]. *Diplomatik* atamasi *diplomatiya* atamasi bilan bir o‘zakdan yasalganligi va asli yunoncha bo‘lib fransuz tiliga o‘zlashganligi barchaga ma’lum. Tushunchamizda birinchi rasmiy ma’no aks etadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan aslida norasmiy ma’noda *muomalaga usta*, muammoni yaxshi yecha oladigan norasmiy kishi uchun ham tilimizda *diplomatiyasi kuchli* tarzida ko‘p ishlatiladi.

Turk tilida *diplomasi* atamasi – fransuz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, 1. Xalqaro munosabatlarni tashkil etadigan shartnomalarning majmuasi; 2. Xorijiy davlatlarda va xalqaro anjumanlarda o‘z davlatining nomidan ish yuritish san’ati; 3. Shu ishda ishlaydigan kishining vazifasi, kasbi; 4. Bu kasbdagilardan tashkil topgan jamoa; 5.(majoziy ma’noda) Qiyin bir uchrashuv chog‘ida ko‘rsatilgan mahorat va ustalik – deya ta’kidlanadi [TS: 1988, 380-381].

Demak, ‘*diplomatik diskurs*’ – bu har qanday davlatning rasmiy tilida xalqaro miqiyosda chet mamlakatlar bilan olib boriladigan og‘zaki muloqot orqali fikr almashinuvdan boshlab yozma nutq va matnga qadar boradigan yo‘ldir. Diplomatiyada qo‘llaniladigan diskurs – *ehtiyotkor ifodalar, muloyimlik va neytrallik, ziddiyatdan qochish, rasmiy iboralar = diplomatik nezaket, o‘zel bir terminolojiye dayanan dil, gerilimi dūşürme, uzlaşmayı sağlama, örtülü ifade (evfemizim)* dan foydalanish kabi xususiyatlarga ega. Misol uchun, diplomatiyada ‘*biz rozi emasmiz*’ ifodasi to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlatilmaydi. Uning o‘rniga ‘*biz tashvish bildiramiz*’ = ‘*endişelerimizi dile getiriyoruz*’ yoki ‘*bu masala qo‘shimcha muhokamani talab etadi*’ = ‘*bu konu ek müzakereler gerektirmektedir*’ kabi ifodalar qo‘llaniladi. Yani vaziyatga bilvosita munosabat bildiriladi.

Aslida har qanday norasmiy kommunikantlar orasida ham norasmiy diplomatiya mavjud. Bu ularning bir-biri bilan bo‘ladigan turli murakkab muloqotlarida aks etadi: *hol-ahvol so‘rash, iltimos va tavsiyalar* kabi. Bu murakkab munosabatlar asosida kuzatiladigan mazmun – *nozik ifoda (ijobiy yoki salbiy), ehtiyotkorlik, e’tibor, hurmat* sanaladi. Til orqali insonlar faqat ma’lumot yetkazib qolmasdan fikrini va dunyoqarashini ham ifoda shakllarida aks ettirishi kuzatiladi. Ifoda shakllari esa, verbal va noverbal bo‘lishi mumkin. Har ikki verbal va noverbal

ifoda shakllarida ekstralingvistik omillarning ahamiyati katta. Ekstralingvistik omillarning qo'llanilishi kommunikantlarning dunqarashi va holatni qanchalik anglashi bilan bog'liq bo'ladi.

Har bir adabiy tilning asosi – so'zlashuv tili sifatidagi og'zaki nutq ekanligi ma'lum. Adabiy til esa – so'zlashuv tilining tilshunoslar tomonidan ishlov berilgan va ma'lum qonun-qoidalarga solingan shaklidir.

O'zbek tilida *diplomatik diskurs*dan tashqari *diplomatiya tili* atamasi ham ishlatiladi. Bu atama haqida O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha ta'kidlanadi: 1. Diplomatik aloqalar va shartnomalar tili; 2. Diplomatik lug'atlarga kiritilgan maxsus terminlar va iboralar [O'ME-D: 2000, 294 b].

Bu ikki terminning bir-biri bilan qanchalik bog'liqligini qarab chiqamiz. Tilning eng muhim fikr almashinuv vositasi ekanligini yuqorida ta'kidlagan edik. *Diplomatiya* tilining xususiyati – diplomatik vaziyatlarda qo'llaniladigan so'zlar, atamalar va qat'iy protokol qoidalardan tashkii topgan majmua. *Diplomatik diskurs* esa, mana shu majmuaning ishlatilish jarayoni, holati xisoblanadi. Jarayonning amalga oshishi uchun vositaga ehtiyoj seziladi. Ular bir-birini taqozo etib to'ldiradi. Biri ikkinchisiz va ikkinchisi birinchisiz mavjud bo'lolmaydi.

Diplomatik diskurs haqida gap ketganida ta'kidlash muhim bo'lgan jihat, har bir tilda shu jumladan o'zbek va turk tillarida ishlatiladigan modal fe'llar kommunikantlar orasidagi muloqotda nozik bir munosabat ifodalaydi. Ma'lumki, modal fe'llar gapdagi harakatning bajarilishini emas, bajarilishiga bo'lgan munosabatini, *imkoniyatini*, *ehtimoligini*, *ruxsatini* va *zaruratini* bildirishga xizmat qiladi.

Ushbu xususiyatlar modal fe'llarda kuzatiladi. Modal fe'llarning ishlatilishida diskursning tashkil etilish tomonlarini kuzatish mumkin.

Turk tilida modal fe'llar murakkab fe'llarning ichida *bitişik fiiller* tarzida o'rganiladi. O'zbek tilida esa *ko'makchi fe'llar* tarzida tadqiq etiladi.

Turk adabiy tilida *ko'makchi fe'l* (-i, -i/-u, -ü) *vermek*ra, 'yeterlilik fiili' (o'zbek tilida: *imkoniyat fe'li*) atamasi bilan yuritilib ishlatiladigan qo'shma fe'l - (a)*bilmek*ning o'ziga xos ana shunday nozik tomonlari mavjud. Bular: *izin* = *ruxsat*, *rica* = *iltimos*, *tavsiye* = *tavsiya* ve *tahmin* = *gumon* ma'nolari. Mavzumiz uchun muhimi – bu *izin* = *ruxsat*, *rica* = *iltimos* va *tahmin* = *gumondir*. Kommunikantlar orasida biror-bir harakatni amalga oshirish uchun so'raladigan *ijozat* va *so'rash* turk tilidagi qo'shma fe'llar; -(i)*vermek* va

-(a)*bilmek* orqali juda nozik shaklda ifodalanadi. Misollarga murojaat qilamiz:

Siz rahatsiz olmayın. Yalnız, arada sırada, kaleme uğrayıverirsiniz (Güntekin: 1992, 127) 'Siz bezovta bo'lmang. Faqat, ora-chora boshqarmaga birrov kirib turarsiz'.

Yoki: – *Asansörün düğmesine basabilir misiniz?* 'Mumkin bo'lsa, liftning tugmasini *bosib yubora olasizmi*' (so'zlashuvda)?

Misollarda ko'rinib turgan noziklik *buyruqning iltimos* tarzida berilishidadir. Diplomatik diskurs diplomatik vaziyatlarda yoki muloqotda nutqini to'g'ri qurib, nozik ijobiy munosabat mazmunini yetkazishda kuzatiladi. Shu shaklda muloqotga

kirishgan kommunikantlar orasida rasmiy va norasmiy diplomatik diskurni ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilida bu mazmundagi ifodani bir so‘zning ikki ‘*bo‘ldimi*’ va ‘*bo‘ladimi*’ ko‘rinishida qo‘llaganda yaqqol sezish mumkin bo‘ladi. Bir ishni bajarib yetarli darajada xarakat qilib yakuniga kelganda ishni topshirib, ‘*bo‘ldimi*’ degandan ko‘ra ‘*bo‘ladimi*’ variantini ishlatgan kommunikantlar orasidagi muloqot yuqori darajada olib borilgani seziladi. O‘zbek tilidagi ‘*bo‘ldimi*’ shaklida, ‘*yetar endi*’ mazmuni yashiringan bo‘lsa, ‘*bo‘ldimi*’ shaklida ‘*nima deysiz*’ mazmuni mavjud. Bu xam aslida norasmiy yoki rasmiy kommunikantlar orasidagi norasmiy va rasmiy diplomatiya sanaladi.

Xulosa. Muloqot jarayonida kommunikantlar diskursning xususiyatidaga turli grammatik ko‘rsatkichlarning qo‘llanilishiga e‘tibor berishi zarur. Tashqi kuzatishda ijobiy ko‘ringan diskurs aslida mohiyatda salbiy mazmun kasb etishi ehtimoli ham bor. Javobning to‘la berilishi yoki qisman va qisqa javob berilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Muloqot jaroyanida ovozning to‘ni, urg‘uning ishlatilishi bularga qo‘shimcha ravishda noberbal, paralingvistik vositalarning ham qo‘shib ishlatilishi diskursning asl mohiyatini ochib beradi. Sharq diplomatiyasining asosida bilvositalik va hurmatga asoslangan ifodalar ustunlik qilishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ирискулов М., Тилшуносликка кириш, - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.255.
2. Harris Z. Discourse analysis // Language. 1952.V.28.№1.P.1–30p. // <https://www.jstor.org/stable/409987>.
3. Кубрякова Е.С., О понятии дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике: обзор // Дискурс, речь, речевая деятельность. Функциональные и структурные аспекты: сборник обзоров. – Москва: ИНИОН РАН, 2000. – С. 7-25.
4. Shanazarova D.J., Intervyu matnlarining diskursiv tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – Б.24
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – Б. 31.
6. Abdusalomov F. A. Ingliz va o‘zbek tillari harbiy diskursida buyruq maylining sotsiolingvistik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2025. – Б.24
7. Ўзбек тилининг изохли луғати-Д. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 1992. – Б.679.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси-Д. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашрети, 2000. – Б.441.
9. ДИСКУРС - SÖYLEM (Kuram ve Uygulamalar) Editör: Sonnur Aktay Yayın No.: 5832 Beşeri Bilimler No.: 685 ISBN: 978-625-386-163-6 E-ISBN: 978-625-386-165-0 Basım Sayısı: 1. Basım, Ocak 2025 © Copyright 2025, NOBEL AKADEMİK YAYINCILIK EĞİTİM DANIŞMANLIK TİC. LTD. ŞTİ. SERTİFİKA NO.: 40340 [-mehtap@nobelyayin.com](mailto:mehtap@nobelyayin.com)

10. Günay, D. (2018). Söylem Çözümlemesi. İstanbul: Papatya Bilim, s. 25-33.
11. Drid, T. (2010). Discourse analysis: key concepts and perspectives, s. 20.
https://www.researchgate.net/publication/282184078_DISCOURSE_ANALYSIS_KEY_CONCEPTS_AND_PERSPECTIVES.
12. Güntekin R. N. Çalığıuşu. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1992. - 408 s.